

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА  
ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**  
**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**  
**ФИЛОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ**

**“ЗАМОНАВИЙ ФИЛОЛОГИЯДА ИНТЕГРАЦИОН  
ЖАРАЁНЛАР”**

**мавзусидаги**

**Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий анжумани**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**Бухоро, 2020 йил 25 апрель**

**Бухоро- 2020**

Анжуман Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 7 февралдаги 56-Ф-сон фармойишига мувофиқ ташкил этилди.

### **1. Дастурий қўмита**

1. О.Х.Хамидов – университет ректори, раис.
2. О.С.Қаххоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис мувини
3. Ў.У.Рашидов – молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо
4. Д.З.Ражабов – Филология факультети декани, аъзо.
5. Ҳ.П.Эшонқулов – Ўзбек адабиёти кафедраси мудири, аъзо.
6. А.Р.Ахмедов – Ўзбек тилшунослиги кафедраси мудири, аъзо.
7. О.Т.Носиров – Рус тили ва адабиёти кафедраси мудири, аъзо.

### **2. Ташкилий қўмита**

1. О.С.Қаххоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис.
2. Г.Т.Зарипов – ИТ, И ва ИТКБ бўлими бошлиғи, раис мувини.
3. Д.З.Ражабов – филология факультети декани, аъзо.
4. Ҳ.П.Эшонқулов – Ўзбек адабиёти кафедраси мудири, аъзо.
5. А.Р.Ахмедов – Ўзбек тилшунослиги кафедраси мудири, аъзо.
6. О.Т.Носиров – Рус тили ва адабиёти кафедраси мудири, аъзо.
7. Ф.Н.Муродов – Ўзбек адабиёти кафедраси профессори, аъзо.
8. М.Қ.Абузалова – Ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори, аъзо.
9. З.Р.Джураева – Рус тили ва адабиёти кафедраси доценти, аъзо.
10. Н.Ж.Бекова – Ўзбек адабиёти кафедраси доценти, аъзо.
11. Н.С.Қодирова – Ўзбек адабиёти кафедраси таянч-докторанти, аъзо.
12. З.Н.Соҳибова – Ўзбек адабиёти кафедраси таянч-докторанти, аъзо.
13. С.М.Нуруллаева – Ўзбек адабиёти кафедраси таянч-докторанти, аъзо.

## MAKTABDA FANLARARO INTEGRATSION YONDASHUV

*Yo'Idosheva D.N.*, BuxDU dotsenti

Respublikamizda bugun yoshlar ta'lif va tarbiyasi davlat siyosatining dolzARB masalalaridan biriga aylanganligi hech kimga sir emas. Respublikamiz Prezidentining yurtimizda ta'lif sohasini tubdan isloq qilish bilan bog'liq holda aytgan quyidagi gaplari fikrimiz dalilidir: "Ta'lifning maqsadi voyaga yetmaganlarni mahalla-ko'yning ko'z oldida saqlash, yurish-turishi, kiyinishi, o'zini tutishini nazorat qilish yoki yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish, erta tug'ruq, turli oqimlarga qo'shilib qolish kabi vajlar bilan ularni "doimiy infantil yosh bola" statusida saqlab qolish emas. Ta'lif tizimining maqsadi sipo, oq ko'ylak, qora shim kiygan olomonni yetishtirish ham emas.

Ta'lif tizimining bosh maqsadi mustaqil fikrlaydigan avlodni shiddat bilan o'zgarayotgan global dunyoda yashab ketishga tayyorlash, ularni boshqa mamlakatdagi tengqurlariga nisbatan raqobatbardosh qilish va shu orqali millatning ravnaqini ta'minlashdir. Yoshlari kasbsiz, mahorat va malakasiz, mustaqil fikrlamaydigan, o'rganishni o'rganmagan millatlar zaiflashib, boshqa millatlarga yem bo'lishini tarix ming bir marta isbotlab bergen... Shunday ekan hozir bizga ta'lifning yangi islohoti kerak"[1].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugun O'zbekiston aholisining oltmisf foizini yoshlar tashkil etmoqda. Shu sababli mamlakatning barcha sohasida yosh avlodni tarbiyalash va ularga g'amxo'rlik qilish birinchi galadagi vazifaga aylandi. O'zbekistonda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun (2016-yil 24-avgust)ning qabul qilinishi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi (2017-yil 30-iyun)ning tuzilishi bu boradagi muhim qadamlar bo'lib, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ( 1)yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish; 2) yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish; 3) aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish; 4) yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish; 5) xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash) yurtimizda yoshlarga e'tiborning mantiqiy davomidir. Shuningdek, yoshlar ma'naviy olamini boyitish maqsadida "Kitobxonlik madaniyatini oshirish" to'g'risidagi qaror(2017-yil 13-sentabr)ning qabul qilinishi hamda qaror ijrosi sifatida respublika miyyosida kitobxonlar bellashuvlarining o'tkazilishi, g'oliblarga qimmatbaho sovg'alarming taqdim etilishi ham fikrimizni dalillaydi. Zero, yurtning, xalqning, asrlar davomida ajdodlarimiz orzu qilib o'tgan milliy istiqlolning taqdiri, tom ma'noda, kelajagimiz richagi yoshlar qo'lida.

Bugun rivojlanayotgan davlatimizga jahon mamlakatlari mutaxassislari bilan bemalol raqobatlasha oladigan intellektual salohiyat egasi bo'lgan ijodiy fikrlovchi, ma'naviyati yuksak shaxslar zarur. Zero, ma'naviyati yuksak shaxs har xil oqimlar ta'siriga berilmaydi. Yoshlarni yuksak ma'naviyatli barkamol avlod etib tarbiyalashda o'rta umumta'limda ona tilimizning milliy hodisa sifatidagi ta'lifi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu borada ona tili ta'limdi fanlararo aloqadorlikni ta'minlash masalasi o'quvchi-yoshlarning intellektual salohiyatini oshiruvchi jihatlardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'lilda fanlararo integratsion yondashuv masalasining muayyan qirralari o'zbek didaktikasi va tadrisida o'rganilgan, o'rta umumta'limda fanlararo aloqadorlikning qator yechimlari topilgan va amaliyatga tatbiq etilgan. Mamlakatimizda ta'lif-tarbiya, sport, ma'naviyat, ma'rifat sohasida olib borilayotgan jamiki ishlarnegizida barkamol avlodni

shakllantirish, ularga berilayotgan ta’lim-tarbiyaning uzviyligi, sifat va samaradorligini oshirish masalasi turibdi. E’tibor bersak, ta’limning o‘rta umumta’lim bosqichida ona tili (jamiyatga ijodiy tafakkur sohibini yetkazib berish), adabiyot ta’limi maqsadi (jamiyatga barkamol shaxsnii tarbiyalab berish) hamda biologiya (tirik tabiatga to‘g‘ri munosabatda bo‘la oladigan madaniyatli shaxsnii tarbiyalash) o‘quv predmetlarini o‘qitish bosh maqsadida uyg‘unlik, bir-birini to‘ldirish ko‘zga tashlanadi. Shu bois uzlusiz ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlik va uzviylikni ta’minlash, ayniqsa, muhim masalalardan. Ona tili, adabiyot va biologiya o‘quv predmetlarining o‘qitilishiha ijtimoiy buyurtma sifatida belgilangan maqsadga muvofiq mazmun, usul, vosita hamda o‘qituvchi~o‘quvchi munosabatlarida subyekt~subyekt holatini singdirish zarurati paydo bo‘ldi. Demak, ona tili, adabiyot va biologiya o‘quv predmetlarining fanlararo aloqadorligini ta’minlash har uchala o‘quv predmeti oldida turgan maqsadlarning bajarilishiga ko‘mak beradi.

Agar o‘rta umumta’lim bosqichida ta’lim olayotgan 6-, 7-, 8-sinf o‘quvchilarining yoshi 14-16da ekanligini va o‘smir yoshidagi bolaning psixologiyasida sodir bo‘luvchi o‘zgarishlar – atrofdagilar e’tiborini tortish, barchaning diqqat markazida bo‘lishga ishtivoqni inobatga olsak, undagi ayni shu intilishni toza va mantiqli ichki “men”ga aylantirish zarurati paydo bo‘ladi. Bu “men”likni yot g‘oyalari ta’siridan omon saqlab vatanparvarlik, milliylik, milliy g‘urur g‘oyalari, tabiatga muhabbat va o‘zini ham tabiatning bir bo‘lagi deb hisoblash ruhi bilan sug‘orilgan “milliy menlik” darajasiga yetkazish zarur. O‘rta umumta’limning dunyoni bilishda kommunikativ vosita bo‘lgan ona tili ta’limida kishilarning ruhiyat olamini tozalovchi adabiyot, ekologik ma’naviyatni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi biologiya materiallaridan foydalanish, fikrimizcha, yetarlicha samara beradi.

Fanlararo bog‘liqlik, aloqadorlik masalasi ta’lim tizimi paydo bo‘lgandan beri mavjud. Fikrimizning dalili sifatida ona-zaminimiz dunyo fan olamiga bergen qomusiy olimlarning bir paytning o‘zida bir necha soha ilmlari bilan shug‘ullana olganliklari, sohalararo yaqinliklarning muayyan qirralarini ochib bergenliklari (masalan, Beruniy, Al-Xorazmiy, at-Termiziyy, Motruidiy, al-Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Ibn Sino, A.Navoiy va b.) dunyo ahliga ma’lum va mashhur. Fanlararo bog‘liqlik masalalariga XIX–XX asrlar oralig‘ida e’tibor berish ancha kuchaydi. Ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari tadqiqini dastlab didakt olimlar, jumladan, Y.Komenskiy (“Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi”, “Buyuk didaktika”), D.Lokk, I.Gerbart, M. Pestaloststi, K.Ushinskiylar boshlab bergen. Bu yo‘nalishni keyinchalik G.N. Akvileva, D.L.Troytap, G.V.Baltyukova, N.Y.Velenkin, N.M.Drujnina, R.G.Matyushova, I.K.Blinovalar davom ettirganlar [2]. Ushbu muammo o‘zbek olimlari T.S.Nazarova, T.G.Rizayeva, R.Mavlonova, N.Rahmanqulovalarning metodik qo‘llanmalarida, ”Til va adabiyot ta’limi” jurnalida chop etilgan bir qator metodik maqolalarda tadqiq qilingan. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘zaro bog‘lab o‘qitish N. Yo‘ldoshevaning “Ertak dars”, Malohat Umarovaning “Ona tili darslarida ma’naviyat tarbiyasi” nomli maqolalarida umumiylar tarzda tadqiq qilingan. “O‘rta umumta’lim, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida aniq va tabiyi fanlarning o‘zaro aloqadorlik va uzviyligi masalalari” Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari tarkibidagi bir qator maqolalarda, tilshunoslikning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan “O‘zbek tili doimiy anjumani”ning VIII yig‘ini [4] materiallarida va metodik xarakterdagi boshqa ishlarda yoritilgan.

Hozirgi zamon ta’limining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish, buning uchun esa ularda ijodiy tafakkurni shakllantirish hamda rivojlantirishdan, jamiyatga intellektual salohiyatlari shaxslarni yetishtirib berishdan iborat. Zero, o‘zbek milliy ta’lim tizimi “bilimdon shaxsnii tarbiyalash” maqsadidan “ijodiy fikrlovchi shaxsnii tarbiyalash” maqsadi sari yo‘naltirildi. Ona tili ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish,

erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘zini tabiatning bir bo‘lagi sifatida anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda raxon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilar ekan, uning mazmunidan tortib toki oddiy ta’lim topshirig‘igacha belgilangan maqsadga bo‘ysundirilmog‘i shart [3].

Maktabning, masalan, 6-,7-,8-sinflarida ona tili, adabiyot va biologiya mavzularini bog‘lab o‘qitish ta’limda fanlararo aloqadorlik, bog‘liqlikni ta’minlaydi; 14-16 yoshli bola qalbida barkamollikka intilish, tabiatni faqatgina sevish bilangina chegaralanmaslik, balki uni avaylab asrash zarurligini ifodalovchi tuyg‘ularni uyg‘otadi, asosiysi, ham ona tili, ham adabiyot, ham biologiya ta’limi samaradorligini oshirish vositasiga aylanadi.

Xullas, maktabda ona tili mashg‘ulotlari mustahkamlash, takrorlash darslarida ham, yangi mavzu bayonida ham ona tili mavzularini adabiyot, biologiya mavzulari bilan bog‘lab o‘qitish zamonaviy ta’lim talablariga mos keladi va bu har uchala o‘quv predmeti **BADIY MATN**

### **TAHLILIDA INTEGRATSION YONDASHUV**

***Yusupova D.Y.***, BuxDU magistranti

Oliy ta’limda “Badiiy matn tahlili” darslari bevosita tilshunoslik va adabiyotshunoslik integratsiyasiga tayanib ish ko‘radi. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birlıklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e’tiborni qaratish zarur. She’riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she’rda o‘ziga xos jozibador ohang bo‘ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo‘llash natijasida erishiladi. She’riyatda asosan, **alliteratsiya** (undoshlar takrori), **assonans** (unlilar takrori), **geminatsiya** (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalilanildi [1].

Nasrda ham, nazmda ham unlilarni cho‘zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta’minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo‘llash bilan bog‘liq qonuniyatlarni yozuvda “aynan” ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Buni O‘zbekiston Xalq shoirasasi Halima Xudoyberdiyeva she’rlari misolida kuzatishimiz mumkin.

**1.Unlilarni birdan ortiq yozish.** Bunda unlini cho‘zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho‘zib talaffuz qilish orqali lirik qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me’yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalaniishi ta’kidlanadi. Masalan,

Tomirida To‘maris qoni oqayotgan shoira maydondan qochib erka tuyg‘ularga panalamaydi. U faqatgina intim hislarga ham bog‘lanib qolmaydi. Yuragida “*ona arslon in qo‘ygan*” shoira otasi, onasi kabi oddiy mo‘te inson sifatida “*tiz cho ‘kkancha yashab*” o‘tmoqqa also ko‘nmaydi. U butun elda, yurtda erk shamoli esishini istaydi. Ijodkor istak-xohish bilan cheklanib chetda tomoshabin bo‘lmoqchi ham emas. U mustaqillikdan oldin yozilgan she’rida yalov tutib g‘aflatdagi yurtdoshlarini o‘yg‘otmoq uchun yaratgandan “*Turk, Turonni ko ‘tarmoqni o‘zimga ber*” deb iltijo qiladi.

*Otam, onam ko ‘ngli yig ‘lab, bo‘sha-a-b o‘tdi,*

*Otam, onam yog ‘iyga par to‘sha-a-b o‘tdi,*

*Otam, onam tiz cho ‘kkancha yasha-a-b o‘tdi,*

*Xudo, endi madoringni tizinga ber.*

*Ko ‘klamlarim taloshlardatalo-o-n bo‘ldi,*

*Uvuz etda kuydim, yig‘i, o‘la-a-n bo‘ldi,  
Yozim–balog‘atga yetgan nolo-o-n bo‘ldi,  
Endi o z o d qo‘sishqlarni kuzimga ber.*

*Soviy-soviy muzlagan dil muzliklarim,  
Eriy boshlab so‘z ochmoqda so‘zliklarim.  
Qaytsa, qaytmas bo‘lib ketgan o‘zliklarim,  
Turk, Turonni ko‘tarmoqni o‘zimga ber.*

(“Turk, Turonni ko‘tarmoqni o‘zimga ber” she’ridan)

She’r misralarida qofiya tarkibida unlilarni birdan ortiq yozish shu so‘z ifodalayotgan leksik mazmunga qo‘sishmcha davomiylik ma’nosini ham yuklaydi va unda ohangdorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Halima Xudoyberdiyeva shunchaki she’rparast emas yoki vatan haqida jimmijador misralar yozib o‘z yozganlarining ketidan kerilib yuradigan shuhratsevar ham emas. U vatanini, elini butun borlig‘i bilan sevishini tabiiy hol deb hisoblaydi, o‘zini uning bir parchasi, o‘zligi deb biladi. Shuning uchun ham u yurtini, xalqini asrash uchun: “*Mendan qay ish lozim bo‘lsa, Barchasiga tayyorman!*” deb xitob qiladi. Bu ijodkor – xalqparast. Bu shoira – yurtparast. Nega?! Chunki u uchun turkiy eli “*Iymoni(m)ga o‘rab yurgan boyligi(m)*”: shoraning yozganlari “*eli(m)ning jon-jigariga ko‘zmunchoq*”, u shu yurt, shu el uchun “*boshdan oyoq HURLIKni kiy*”gan. Shu boisdan shoira xudodan ham, avvalo, eliga, yurtiga omonlik tilaydi va shunday yozadi:

*Dilda o‘sib, nurab yurgan boyligim,  
Bor dunyodan so‘rab yurgan boyligim,  
Iymonimga o‘rab yurgan boyligim,  
Turk elimni shafqatingga zo-o-r qilma.*

*Bor yumushim bitib, ketar mahalim,  
Nuray-nuray yitib ketar mahalim,  
So‘ray-so‘ray o‘tib ketar mahalim,*

*Iltijom shu: “Turkistonni xo-o-r qilma”.* (“Iltijom shu” she’ridan)

Shuningdek, badiiy matnda unlilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan afsuslanishi, hayratlanishi, taajjubga tushishi kabi holatlarini ifodalashda ham foydalaniladi. Masalan, *O-o-o-o...Allaqachon unutdim bari-barini*, “*Allaqachon*” aldamayman men o‘zimni o‘zim. *Ortda qolgan muhabbatning qo‘sishqlarini, Eslatma, deb o‘z-o‘zimga tilayman to‘zim...* (“Unutgan ma’qul” she’ridan)

*O‘rtoqlarim joni po‘lat, joni qil,  
Biri sariq, biri kamqon, biri sil  
Hali uz-oq davolanar, uz-oq yil  
O‘lmay qolsa bo‘ldi. Qayta bo‘lmas moh*

*Qo‘llarimning kishani yo‘q, yo Ollo!* (“So‘nggi oh” she’ridan)

Mazkur fonografik usuldan badiiy matnda xitob, chaqirish, da’vat, tinglovchi e’tiborini jalb qilish, hatto istehzo qilish holatlarini ifodalashda ham foydalanishini kuzatish mumkin. Shoira “Sulton qaroringni ber!” nomli she’rini Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti” kitobidagi quyidagi lavhadan ta’sirlanib yaratadi:

“Bu fojialardan ko‘p ta’sirlangan sultonning onasi, ahli ayoli unga yukindi: “Allohn o‘rtaga qo‘yib iltijo qilamiz. Bizni o‘zing o‘ldirib asirlikdan qutqar!” U noiloj barchasini suvgaga cho‘ktirishni amr etdi”. Dunyoda haqiqiy erkak zoti borki onasini, ahli ayolini har qanday sharoitda har nedan, har qanday xavfdan, hatto begona nazardan ham himoya etadi. Bilamiz,

yurt, millat qayg‘usi jismi joniga singgan milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdi onasi, ahli ayolini dushman iskanjasidan qutqarmoq uchun ularning hayotiga o‘zi nuqta qo‘yish amrini berishga majbur bo‘ladi. Halima Xudoyberdiyeva Jaloliddin Manguberdining ilojsiz, ammo o‘sha vaziyatdagi eng to‘g‘ri qarori bugun bizga ham zarurligini aytadi. Yo‘q, u buni shunchaki aytmaydi. Bugunning beparvolariga istehzo bilan aytadi: yurtning har bir erkagi Jaloliddin sulton, har bir ayoli uning oqila zavjasи, mard onasi kabi bo‘lishini istaydi. Yurt, uning har siqim tuprog‘i uchun o‘zidan, yurtdoshlaridan jonfidolik so‘rab shunday yozadi:

*Sulton, qahringni ber,  
Qahrlanaylik,  
So ‘kilsin osoyish ko ‘ngilning choki.  
Sulton, zahringni ber, zaharlanaylik,  
Bemormiz, bu zahar sog‘aytsin toki.  
Yoronlar!  
Biz hambi-i-ir sultonlanaylik  
Uning yulbars ruhin o‘zga o‘tkarib,  
Bo ‘laylik sultonga suyukli qayliq,  
Sultonning onasi bo ‘laylik, g‘arib...  
Hatto  
Xayolidan boryapman o‘rlab,  
Bizda-da bi-i-ir yashab, ko ‘karsin sulton.  
Dunyoga larzalar solarak gurlab,  
Turkiy qavmlarni ko ‘tarsin sulton!  
Qodir Alloh,  
Bir bor kechsin shunday hol,  
Keyin,  
Keyin mayli, ne g‘am chekdirsin,  
Yog‘iy oyog‘ida qilmasdan poymol.  
Bizni onasiday...  
Xotiniday bizni...  
Daryo suvlarida o‘zi cho ‘ktirsin.*

Ha, har na etsa, Vatan etsin, Yurt etsin, “yog‘iy oyog‘ida qilmasdan poymol”. Shoira beparvo kun o‘tkazmoqni yashash deb bilmaydi. Shu boisdan ham beparvolarga istehzo etayotganligini she‘r bandida bir necha o‘rinda unlilarni cho‘zish orqali ifodalaydi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodidan fonetik hodisalar rang-barang qo‘llanilgan misollarni ko‘plab topish mumkinki, bu hamisha til va adabiyot, ularning ta’limi mushtarakligidan dalolatdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзаев И. Абдулла Қахҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлилига бағишланган янги тадқиқот ҳақида//Филология.10-чиқиши. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.–214 б.–26-29-б.
2. ХудойбердиеваҲ. Осойишташам. Шеърлар, назм.–Тошкент: Ўзбекистон, 2017.–168 б.

Запись Отключить оригинальный звук 02:40:34 Вид докладчика



The interface shows a grid of participant thumbnails. The top row includes: Гайрат, Тоирова Гули, Абузалова ..., Rajabov Dils..., Dilara Kamil, and Hilola Safarov. The second row includes: РИСА, Кутлумурато..., Abdumurod ..., Emek, Халима Ари..., and Dilorom Yuldosheva (highlighted with a yellow border). The third row includes: Yahyo Yonko..., Behruz Avazov, Nazzora Bek..., Bülent Bayram, Sabohat Boz..., and Bahronova Kom... (highlighted with a yellow border). The fourth row includes: Махира Сайдова, Qahramon T..., Hayot Latipov, Qahhorov Otob..., a logo for БУХАРА, and Эркин Мухторов.

1/2 1/2

14:23 14:23

Запись Запись

Dilorom Yuldosheva Dilorom Yuldosheva



## МУНДАРИЖА

<b>Кириш .....</b>	<b>4</b>
<b>1-ШЎБА ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИКДА ИНТЕГРАЦИОН ЖАРАЁНЛАР</b>	
<i>Абузалова М.Қ., Фатуллаева К.Р.</i> КОДЛАШ - ТАФАККУР - ДЕКОДЛАШ ЖАРАЁНИНГ БОҒЛИКЛИГИ ХУСУСИДА.....	6
<i>Муминов Ф.А.</i> РАЗУМНЫЙ ЧЕЛОВЕККАК ИНТЕГРАЦИЯ МЫШЛЕНИЯ, ТРУДА, ПРЯМОХОЖДЕНИЯ И ЯЗЫКА.....	8
<i>Жўраева Б.М.</i> БИОЛОГИЯ ВА ТИЛШУНОСЛИКДАГИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВНИНГ МАҚОЛЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ.....	12
<i>Астанова Г.А.</i> АРАБ ТИЛИНИ ЎРГАНИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ.....	15
<i>Ahmedov A.</i> TURKIY TILLARDA UNLILAR TARAQQIYOTI.....	17
<i>Asadov T.H.</i> NUTQNING TOZALIGI VA TA'SIRCHANLIGI HAQIDA.....	21
<i>Ashurbayeva R.Q.</i> TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH.....	24
<i>Ахмедова Д.</i> ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ПОЛИСЕМАНТИК СЎЗЛАРНИ ТЕГЛАШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.....	27
<i>Бахронова К.Я., Сайдова М.Р.</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ И ТЕХНОЛОГИЙ В СФЕРУ ОБРАЗОВАНИЯ.....	30
<i>Бозорова Н.Х.</i> ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ПЕДАГОГИКЕ И ЛИНГВИСТИКЕ.....	32
<i>Джураева З.Р.</i> ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРИРОВАННЫХ УРОКОВ В СИСТЕМЕ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	35
<i>Дўсимов Зарифбой.</i> ЎЗБЕК ТИЛИ ЛЕКСИКАСИДА ТАГ ҚАТЛАМ МАСАЛАСИ.....	38
<i>Yo'ldosheva D.N.</i> MAKTABDA FANLARARO INTEGRATSION YONDASHUV.....	41
<i>Кутлимуратова Г.К.</i> ИНТЕГРАЦИЯ ПРЕДМЕТОВ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ .....	43
<i>Муртазаева Н.Ж.</i> ПРИМИНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДОВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.....	45
<i>Муқимова Г.Р.</i> ФИТОМОРФЛАРНИНГ КЎЧМА МАҲНОДА КЕЛИШИ .....	48
<i>Nazarova S.A.</i> TILSHUNOSLIKDA INTEGRATSION JARAYON.....	50
<i>Носиров О.Т.</i> КОНЦЕПТЫ «ЗИМА, ВЕСНА, ЛЕТО, ОСЕНЬ» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРЕ.....	52
<i>Тоирова Г. И.</i> КОРПУС УЧУН МАТНЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ХУСУСИДА.....	56
<i>To'xtayev Sh.</i> RAVISHDOSHNING MA'NO TURLARI(1 soatlik dars ishlanmasi).....	58

<i>Raxmatilloyeva F.N.</i> SO‘Z BIRIKMASINI FAHMIY VA IDROKIY BILISH.....	61
<i>Сидоркова Л.Р.</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СТАТИСТИКИ В АНАЛИЗЕ СТИЛИСТИЧЕСКОЙ ОКРАСКИ ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО.....	63
<i>Хасанова Г.К., Раджабова Ш.Р.</i> ПРОЦЕССЫ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ.....	67
<i>Хикматова Д.</i> ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ.....	69
<i>Ғайбуллаева Н.И.</i> ТИББИЙ ЭВФЕМИЗМЛарнинг МИЛЛИЙ-ЭТНИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	72
<i>Шарипова Д.Г.</i> СОВРЕМЕННЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ .....	76
<i>Cho 'lliyeva G.T.</i> МАКТАБДА АМАЛИЙ INTEGRATIV TA'LIM ZARUR.....	79
<i>Yusupova D.Y.</i> BADIY MATN TAHLILIDA INTEGRATSION YONDASHUV.....	81
<i>Hojiyeva N.H., Asadova Sh.A.</i> ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA FANLARARO ALOQADORLIKNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI.....	84
<i>Зарипова А.</i> НУТҚИЙ МУЛОҚОТНИНГ ЯКУНИЙ БОСҚИЧИ ҲАҚИДА.....	87
<i>Dildora Tosheva</i> “ХОНА” – О’ЗАК MORFEMA VA QO’SHIMCHA MORFEMA SIFATIDA.....	88
<i>Qilichev B.E., Adizova N.B.</i> , BUXORO ETNOTOPONIMLARI.....	91

## **2-ШЎЬБА: ЗАМОНАВИЙ АДАБИЁТШУНОСЛИКДА ИНТЕГРАЦИОН ЖАРАЁНЛАР**

<i>Сафаров О., Сафарова Ҳ.</i> САМАНДАР ВОҲИДОВ ШЕЪРИЯТИДА СЕВГИ-МУҲАББАТ МАДҲИ .....	95
<i>Almaz Ülvi BİNNƏTOVA</i> ƏLİŞİR NƏVAİ İRSİNİN AZƏRBAYCANDA TƏDQİQİ METODİKASI.....	97
<i>Ёқубов Исломжон</i> ЗАРУРИЯТ ВА ТАСОДИФ ДИАЛЕКТИКАСИ.....	104
<i>Ахмедова Ш.Н.</i> МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ - МУСТАҚИЛ ТАФАККУРГА ЙЎЛ.....	109
<i>Муродов F.Н.</i> ТАРИХИЙ РОМАННИНГ ИНТЕГРАЦИОН СТРУКТУРАСИ.....	111
<i>Ўраева Д. С.</i> ЎЗБЕК ФОЛЬКЛОРИ ВА АДАБИЁТИДА “ҶОРА ХАТ” МОТИВИ.....	116
<i>Кувватова Д.Ҳ., Баротова М.</i> КИНОЯ ВА ТАРЖИМОН УСЛУБИ.....	118
<i>Ражабов Д.З.</i> УМУМФИЛОЛОГИК ТАҲЛИЛ. НАТИЖА ВА САМАРА.....	122
<i>Шарипова Л.Ф.</i> УЛУҒ ВА БОҚИЙ ЧАШМАДАН СУВ ИЧГАН ШЕЪРИЯТ .....	124
<i>Давронова Ш.Ғ.</i> БАДИЙ ОБРАЗ ТАСВИРИДА АНЪАНАВИЙЛИК .....	127

Эшионқулов Ҳ.П. КЎПМАЊОЛИК ИФОДАСИДА ПАЙГАМБАРЛАР ОБРАЗИНинг ПОЭТИК ФУНКЦИЯСИ.....	129
Ахмедова Ш. Н., Ҳудойқурова М. “БАҲС-МУНОЗАРА” МЕТОДИ АСОСИДА БАДИЙ АСАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ.....	133
<i>Adizova Nilufar Istamovna.</i> ERKIN VOHIDOV – MOHIR SO’Z USTASI.....	136
Адизова О. НАВОЙЙ ИЖОДИДА УСТОЗЛАРГА ЭҲТИРОМ ТАЛҚИНИ.....	138
Амонаева З. Қ. Ахророва З.Р.“ҲАЙРАТУЛ АБРОР”ДАГИ “ИККИНЧИ ҲАЙРАТ” ТАЛҚИНИ.....	140
<i>Azimova M. S. SADRIDDIN SALIM BUXORIY SHE’RIYATIDA BOLALAR VA BOLALIK MAVZUSI.....</i>	142
<i>Axmedova N. S. RANGIN TAFAKKUR VA NUTQ.....</i>	144
Ахмедова Ҳилола. ИНГЛИЗ АДИБАСИ ИЖОДИНинг ЎРГАНИЛИШИ ҲАҚИДА .....	147
Бекова Н. Ж. ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА НАВОЙЙ ШАХСИНинг АЙРИМ ҚИРРАЛАРИ.....	148
Бахиуллаева Н.У. “НАЗМУЛ -ЖАВОҲИР” РУБОЙЛАРИДА НАФС ТАЛҚИНИ.....	153
Гудзина В.А. ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ТВОРЧЕСТВУ ЗУЛЬФИИ.....	155
Ёдгоров Жалолиддин БАДИЙ МАТНДА УНДОВ СЎЗЛАР.....	157
Ёқубов Азизбек ТАРИХИЙ ҲАҚИҚАТ ВА БАДИЙ ТАЛҚИН.....	158
<i>Zoyirova Go`zal SAMANDAR VOHIDOV SHE’RLARINING BADIY-G’OYAVIY TAHLILI.....</i>	164
<i>Ibroimova Mahliyo NAVOIYNING “AYNUL HAYOT” QASIDASIDA PAYG’AMBAR(SAV) VASFI.....</i>	167
Ашуроева Интизор НАВОЙЙ ИЖОДИ - ЎЗБЕК МУМТОЗ АДАБИЁТИНИНГ ЭНГ ЮКСАК БОСКИЧИ.....	170
Исаева Гулнора Абдукадировна. ПЕРЕСЕЧЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО КОНТЕКСТА И ЛИТЕРАТУРЫ.....	172
<i>Kamolov Ixtiyor HAROLD LAMBNING “BOBUR – YO’LBARS” ASARIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR BIOGRAFIYASIGA OID MA’LUMOTLARNING QIYOSIY TAHLILI.....</i>	175
Латипов Ҳ. Р ИШҚ, МАЪРИФАТ ВА МОҲИЯТ.....	177
Матёқубова Тозагул АЁЛ ТИМСОЛИНИНГ ШОИРОНА ТАСВИРИ.....	181
<i>Murodova Gulchehra “HAYRAT UL ABROR”NING SO’Z TA’RIFI BOBIDA SHOIR MAHORATI.....</i>	185
Муртазаева Ф. Р. ОБРАЗЫ ЖЕНЩИН В ПРОЗЕ ЗУЛЬФИИ КУРАЛБОЙ КИЗИ.....	187
Нусратова Ҳамида БОЛАЛАР ПУБЛИЦИСТИКАСИ РИВОЖИ ҲАҚИДА.....	189

<i>Нуруллаева Сарвиноз ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА КАСАЛЛИКЛАРНИНГ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ОРҚАЛИ МЕТАФОРИЗАЦИЯЛАНИШИ.....</i>	192
<i>Норова Насиба ИЖОДКОР УСЛУБИ.....</i>	195
<i>Narzullayeva Nilufar SAID АХМАД - XOTIRANAVIS.....</i>	198
<i>Ражабова М.Б. ФОЛЬКЛОР ЖАНРЛАРИ СТИЛИЗАЦИЯСИ МОҲИЯТИ ВА АНЪАНАВИЙЛИГИ.....</i>	200
<i>Ражабова Р.З. МАҲМУД МУРОДОВ ЭРТАКЛАРИНИНГ БАДИЙ КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ.....</i>	202
<i>Раҳматов Й.Ғ. МАҶОЛ, ЗАМОН ВА ТАДРИЖ.....</i>	206
<i>Safarova H., Гули Qayumova FITRAT IJODINI O'RGANISHDA TEST TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH.....</i>	209
<i>Sayliyeva Zarina BIR G'AZAL ASOSIDA ESKI O'ZBEK TILINING LEKSIK XUSUSIYATLARI.....</i>	212
<i>Sayliyeva Zarina «G'AROYIB US-SIG'AR»DAGI 2-G'AZALNING FONETIK XUSUSIYATLARI.....</i>	214
<i>Sayliyeva Mokhinur THE INTERPRETATION OF PRAISE OF ALLAH IN THE EAST LITERATURE.....</i>	216
<i>Salohiddinova Lobar DILSHOD RAJAB – ADABIY ERTAKNAVIS.....</i>	220
<i>Sayfiddinova Nodira “SARVIQOMAT DILBARIM” ASARI SUJET TIZIMIDA RETROSPEKSIYA USULI.....</i>	222
<i>Sodiqova Dilorom MUSLIHABEGIM MISKIN IJODIDA MUHAMMAD ALAYHISSALOM VA AHLI BAYTI TALQINI.....</i>	225
<i>Соҳибова Зарнигор ЭРКИН ВОҲИДОВНИНГ БАҲОР ҲАҚИДАГИ БИР ШЕЪРИ ХУСУСИДА.....</i>	228
<i>Тўраева У.Р. АДАБИЁТШУНОС БЕГАЛИ ҚОСИМОВНИНГ “МАСЛАҚДОШЛАР” АСАРИДА МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ИЖОДИГА МУНОСАБАТ.....</i>	230
<i>Тешаева Гульноза ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ГАЗЕЛЯ БАБУРА.....</i>	232
<i>Узакова Муниса ФИТРАТ МУСИҚА АСБОЛЛАРИ ҲАҚИДА.....</i>	235
<i>Ходжиева Гавҳар “СОҲИБҚИРОН” ШЕЪРИЙ ДРАМАСИДА АМИРТЕМУР ТАЛҚИНИ.....</i>	236
<i>Sharopov Jamshid NAVOIYNING «RUH UL-QUDS» QASIDASIDA OSMON JISMLARI TASVIRI.....</i>	239
<i>Choriyeva Mehriniso TAMKIN BUXORIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA TARIXIY MANBALARNING O'RNI.....</i>	243
<i>Egamberdiyeva Gulchiroy OYDIN НОЛҮЕВА IJODIDA FOLKLORIZMLAR.....</i>	246
<i>Ўроқова Н. Ё. ЗАМОНАВИЙ ДОСТОНЛАРДА РОМАНЛАШУВ ҲОДИСАСИ.....</i>	249

<i>O'roqova N.Y., Choriyeva G. S.</i> ZAMONAVIY ROMANLARDA AKS ETGAN AYOL FOJASI TALQINIDA PSIXOLOGIYANING O'RNI.....	253
<i>Қодирова Насима</i> ИЛМИЙ АДАБИЙ ТАФАККУР ВА УСЛУБ МАСАЛАСИ.....	256
<i>Qudratova M.Sh.</i> SIROJIDDIN SAYYID SHE`RLARIDA HADISLARNING BADIY TALQINI.....	258
<i>Курбонова Олтиной</i> “ЮРАК-АЛАНГА”ДА МУНАҚҚИД ҚИЁФАСИ.....	261
<i>Ҳамидов Азимжон</i> НАВОЙЙ ҒАЗАЛИНИНГ МУАЛЛИФ ТОМОНИДАН ТАҲРИР ЭТИЛИШИ ХУСУСИДА.....	262
<i>Ismoilova Xumora</i> “DEVONI FONIY”DA SO’Z SEHRI.....	266
<i>Ражабов Т.А.</i> МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА БАДИЙ КЎЧИМЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	267
<i>Хайруллаева М.</i> МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА БАДИЙ КЎЧИМНИНГ КИНОЯ ВА КИНОЯВИЙЛИК ҲОДИСАЛАРИ СИФАТИДА УЧРАШИ.....	273
<i>О.Н.Муртазоев.</i> Коннотатив маънонинг ўрганилиши.....	277
<i>О.Н.Муртазоев.</i> БАДИЙ УСЛУБНИНГ ФОНЕТИК ВОСИТАЛАРИ.....	281
<i>Тўхсанов Қаҳрамон.</i> Тил ва таржима.....	283
<i>Н.Худойбердиева.</i> Абдулла Қодирий асарларида тарихий инверсия ва фолклор хронотопи масаласи.....	288
<b>Мусаджанова Гулчехра. КОММУНИКАТИВНОСТЬ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ.....</b>	<b>291</b>
<i>Temirova Mohichehra.</i> Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni hamd bobি nashrlarining qiyosiy tahlili.....	296
<i>Назора Бекова, Маҳлиё Иброимова.</i> Шеърий таржима ва таржимон маҳорати.....	300
<i>Abdumurod TILABOB.</i> O’ZBEK XALQ DOSTONLARINI O’QITISHDA KREATIV YONDASHUV.....	303
<i>Ro’ziyev N.Q., Raximov M.M.</i> IBORALARNING KOMMUNIKATIV VAZIFALARI.....	308
<i>Ruziev Nodir.</i> READING AS ONE OF THE IMPORTANT LANGUAGE SKILLS.....	313